

OLIV TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGIK JAMOASI IJTIMOIV-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Yunusaleva Nargiza Ortiqboy qizi

Qo'qon davlat universiteti psixologiya kafedrasi assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20718843>

Bugungi kunda ko'pgina mahalliy va xorijiy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsni ijtimoiy guruhga kiritish individual-sub'ektiv psixologiya darajasida odamda o'zini namoyon qilmaydigan o'zaro ta'sirning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik mexanizmlari bilan belgilanadigan yangi shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishga olib keladi. Jamoaning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida tadqiq etish uning shakllanishiga ko'ra bir xil bo'lmashligini ifodalaydi. Bu esa jamoaning tarkibi, statusi, ichki munosabat xususiyatlari, mavjud bo'lish muddati, o'lchami va mehnatga munosabati ko'ra xilma xilligi orqali belgilanadi.

Zamonaviy ijtimoiy psixologiyada "jamo", "jamoatchilik (jamoizm)" va "jamoaviylik (jamoalik)" tushunchalari guruh faoliyatining psixologik mazmunini ochib beruvchi muhim kategoriyalardan hisoblanadi. Ilmiy manbalarda jamo – ijtimoiy ahamiyatga ega va axloqiy yuksak maqsadlar atrofida birlashgan, ichki qiymatlar va maqsadlarni ongli ravishda muvofiqlashtira olgan, yuqori darajada jipslashgan guruh sifatida ta'riflanadi. Bu yondashuv sovet ijtimoiy-psixologik maktabining (A.V. Petrovskiy, B.G. Ananov, Yu.P. Platonov va b.) nazariy qarashlarida keng tarqalgan.

Jamoizm esa shaxsning muayyan ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladigan ahloqiy-psixologik sifatlar majmui sifatida qaraladi. Tarixiy jihatdan u sotsialistik jamiyat ideallari bilan bog'langan holda, kapitalistik jamiyatga xos konformizm yoki nonkonformizmdan farqli ravishda, faol, ongli, ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan xulq-atvor shakli sifatida ta'riflangan.

Shu bilan birga, "jamoalik" atamasi adabiyotlarda "hamkorlikdagi faoliyat" tushunchasi bilan teng qo'llansa-da, Yu.V. Platonov bu ikki tushuncha o'rtasida aniq farq mavjudligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, hamkorlik – faoliyatni tashkil etish shakli, ya'ni guruh a'zolarining birgalikda harakat qilishini ta'minlovchi tashkiliy-mexanizm; jamoalik esa – faoliyat natijasida shakllanadigan psixologik sifat, guruhdagi munosabatlar, qiymatlar va o'zaro javobgarlikning sub'ektiv jihatlarini qamrab oladi. Demak, jamoalik – guruh faoliyatining mazmunli va qiymatli tomoni bo'lib, u a'zolarining mehnat, ta'lim, o'yin va boshqa turdagi faoliyatlarga nisbatan munosabati orqali namoyon bo'ladi.

Rus olimi A.I. Donsov o'z asarlarida sovet ijtimoiy psixologiyasida jamoaning psixologik mohiyatini, uning shakllanish mexanizmlarini va tadqiqot metodlarini ilmiy asosda yoritgan fundamental ishlardan biri hisoblanadi. Muallif jamo fenomenini faqat ijtimoiy birlik yoki tashkilot sifatida emas, balki psixologik tuzilma va shaxslararo munosabatlar sifat jihatida talqin qiladi. Donsov ta'kidlaydi, jamo – bu faqat birgalikda faoliyat yurituvchi odamlar guruhi emas, balki qadriyatlar birligi, ijtimoiy ma'no emas, psixologik ma'noga ham ega bo'lgan maqsadlar, shaxslararo munosabatlarning barqaror tizimi, o'zini o'zi boshqarish va mas'uliyatning yuqori darajasi bilan tavsiflanuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik birlikdir. Muallif jamoani o'rganishda faqat tashkiliy omillarga emas, balki shaxslararo emotsional-axloqiy munosabatlar, qiymat yo'nalishlari, guruh identifikatsiyasi kabi psixologik mexanizmlarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Jamoani guruhning yuqori darajasi sifatida talqin qilish Donsovning asosiy nazariy xulosalaridan biri shundan iboratki, guruh – ijtimoiy birlik, jamoa – uning psixologik jihatdan shakllangan oliy darajasi deb ta’riflagan. Muallifning ta’kidlashicha, har qanday guruh jamoaga aylanmaydi. Bunga quyidagi omillar zarur:

1. aniq, ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsad;
2. guruh a’zolari o’rtasidagi yangi qiymat munosabatlari;
3. guruhdagi shaxslararo munosabatlarning ijobiy emotsional fonida shakllanishi;
4. guruhning o’z “an’analari”, “normalari” va “ahloqiy talablar”ining paydo bo’lishi;
5. shaxs va guruh maqsadlarining uyg’unlashuvi.

Shu ma’noda Donsov jamoani shaxs ijtimoiylashuvining eng muhim mexanizmi sifatida ko’radi.

Muallif jamoaning tuzilmasini bir nechta asosiy komponentlar orqali yoritadi:

1. Maqsadlar birligi – guruh faoliyatining yo’naltiruvchi asosi.
2. Qadriyatlar tizimi – guruhning ichki ma’naviy-axloqiy mezonlari.
3. Shaxslararo munosabatlar – o’zaro hurmat, ishonch, talabchanlik va qo’llab-quvvatlashning barqaror shakli.
4. Faoliyatni tashkil etish va o’zini o’zi boshqarish – jamoaning ichki regulatsiya mexanizmi.
5. Identifikatsiya – shaxsning “men guruh a’zosiman” degan ichki hissi.

Bu tuzilma Donsovning fikricha, jamoani oddiy guruhdan farq qiluvchi asosiy psixologik mexanizmlarni belgilaydi.

Shuningdek, Donsov jamoaning rivojlanishini dinamik jarayon sifatida ko’radi va uni bir necha bosqichlarga ajratadi: tashkil etish bosqichi (faoliyatning tashqi birligi mavjud, ammo ichki birlik hali kuchsiz), jipslashuv bosqichi (munosabatlar barqarorlashadi, maqsadlar aniqlanadi) va rivojlangan jamoa (qiymatlar, me’yorlar, talabchanlik va javobgarlikning yuqori darajasi). Bu bosqichlar pedagogika, mehnat psixologiyasi va talaba guruhlarini o’rganishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Jamoalardan biri oliy ta’lim muassasalaridagi pedagogik jamoa hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi pedagogik jamoadagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish alohida va o’ziga xos xususiyatga ega. Pedagogik jamoa psixologik hodisa sifatida uning shakllanishi va faoliyati jarayonida uning a’zolarining ehtiyojlarini o’zaro qondirishning ichki munosabatlari, shakllari va usullarini tarkib toptirish asosida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik hodisalar to’plamiga ega.

Oliy ta’lim muassasalari jamoasining psixologik hodisa ekanligi -bu yosh avlodni o’qitish va tarbiyalashning ma’naviy va ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlari va insonparvarlik maqsadlari bilan birlashtirilgan, boshqaruv va o’zini o’zi boshqarish organlariga ega bo’lgan, birgalikdagi kasbiy faoliyat uchun tashkil etilgan va yuqori sifatli ishlashga qodir professor-o’qituvchilar jamoasi ekanligida namoyon bo’ladi. Shu boisdan ham oliy ta’lim muassasalaridagi pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini alohida tadqiq etishni quyidagi jihatlar bilan bog’lash muhimdir. Pedagogik jamoasining muhim ijtimoiy-psixologik xususiyatlari oliy ta’lim muassasasi faoliyatida belgilangan maqsad va vazifalarning ijrosini

ta'minlovchi omillardan sanaladi. Shu bois, pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik fenomenlari sifatida mavjud ilmiy manbalarga tayanib quyidagilarning inobatga olish zarur:

Pedagogik jamoa a'zolarining ko'p qirrali faoliyatga ega ekanligi. Zamonaviy professor-o'qituvchi bir vaqtning o'zida predmet o'qituvchisi, talabalar jamoasiga murabbiy, ilmiy-uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha vazifalarni bajaruvchi sub'ektidir.

Hamkorlik faoliyatiga tayyorlik. Bu pedagogning nafaqat o'z kasbiy funksiyalarini bajarishga, balki pedagogik vazifalarni hal qilishda hamkorlik qilishga ham tayyor ekanligini taxmin qiladi.

Intellektual va muloqot qobiliyatlari. Pedagogik jamoa va talabalar guruhi a'zolari bilan hamkorlikda ishlash va o'zaro tushunishni o'rnatish jarayonini tashkil eta olish xususiyatlari.

Psixologik muhit. Muayyan pedagogik jamoa, uning a'zolari va ularning faoliyati uchun zarur bo'lgan nisbiy barqaror ruhiy holatlar tizimi. Barqaror psixologik muhitni jamoa a'zolarining hamjihatlikda ishlashi, emotsional ko'tarinkilik, nekbinlik, guruhdagi munosabatlardan mamnunlik, bir biriga nisbatan ishonchi, do'stonalik va xavfsizlik hissi, quvnoqlikni o'zida mujassamlashtiradi.

Professor-o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi jamoadagi axloqiy va psixologik muhitga bog'liq. Bu esa professor-o'qituvchilarning ta'lim muassasasidagi farovonligi va o'qitishda fidoyilik bilan yondashishini ifodalaydi.

Pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik holati. Jamoaning har bir a'zosini hamkasblari va o'ziga nisbatan munosabatlaridan qoniqqanligini ifodalaydi.

Oliy ta'lim muassasasidagi pedagogik jamoaning shakllantirish va rivojlantirishni optimallashtirish uchun unga xos quyidagi jihatlarini tadqiq etish orqali erishishiladi. Quyidagi oliy ta'lim muassasalaridagi pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik fenomen (hodisa) sifatida tadqiq etishda quyidagi psixologik mezonlar bo'yicha tahlil etish va tadqiq etishni maqsadli deb hisoblash mumkin:

Axloqiy shakllanganlik. Jamoaning umuminsoniy axloq-odob va qadriyatlariga tayaniuvchi o'zaro munosabatlari.

Mas'uliyatlilik. Jamoa a'zolarining har biri boshqa hamkasblari taqdiriga nisbatan o'zini javobgar his etishi;

Samimiylik. Jamoadoshlari va boshqa guruh a'zolari bilan ijobiy munosabatda bo'lish.

Hamjihatlik. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ishonchli munosabatning yo'lga qo'yilganligi.

Uyushqoqlik: jamoa a'zolari o'rtasida majburiyatlarni nizo va ziddiyatlarsiz taqismlanganligi, faoliyatni amalga oshirishdagi yetishmovchiliklarni tezkorlik bilan bartaraf etuvchanlik.

Axborot ta'minoti. Jamoada amalga oshiriladigan ishlarni bajarilishi bo'yicha maqsad va vazifalarning aniqligini ta'minlanganligi.

Samaradorlik. Jamoa oldidagi vazifalarni o'z vaqtida va sifatli hal etish.

Oliy ta'lim muassasadagi pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida tahlil etish va uning tadqiq etish yuzasidan quyidagicha xulosalash mumkin:

– pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ham ijobiy, ham salbiy jabhalarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish zarur;

– pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritishda uning axloqiy shakllanganlik, mas’uliyatlilik, samimiylik, hamjihatlik, uyushqoqlik, axborot ta’minoti, samaradorlik xususiyatlariga asoslanish maqsadlidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Дубиницкая К.А. Социально-психологические факторы формирования и проявления синдрома эмоционального выгорания у педагогов и воспитателей дошкольных образовательных учреждений : автореферат дис. ... кандидата психологических наук : 19.00.05. - Москва, 2011. - 27 с.
2. Виноградова, Г.А. Климат в педагогическом коллективе и субъективное благополучие личности педагога: монография / Г.А. Виноградова. – Тольятти: ТГУ, 2010. – 100 с.
3. Донцов, А. И. Психология коллектива : методол. проблемы исслед.: учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности «Психология» / А. И. Донцов. – Москва : Изд-во Моск. ун-та, 1984. – 208 с.
4. Козлов, В. В. Социальная психология: учебник для вузов / В. В. Козлов, С. А. Трифонова, Т. М. Панкратова, Л. А. Николаева. – Москва: Юрайт, 2022. – 501 с.
5. Yunusaliyeva Nargiza Ortiqboy qizi. Oliy ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida. // Psixologiya ilmiy jurnali. – 2025. – №1. – 141–144 б. – ISSN 2181-5291. – www.buxdu.uz
6. Nargiza Yunusaliyeva. Pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Kasb-hunar ta'limi ilmiy-uslubiy, amaliy jurnal. – 2024. – №11. – 100–102 b.
7. Yunusaliyeva Nargiza Ortiqboy qizi (Karshi, Uzbekistan). Psychodiagnostic Opportunities for Studying the Sociopsychological Characteristics of a Pedagogical Team // Vestnik Integrativnoy Psikhologii. – 2025. – Выпуск 37, часть 2. – С. 77–80. – ISBN 978-5-9527-02-16-5.
8. Yunusaliyeva Nargiza. Oliy ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. // “O‘zbekistonda ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishga zamonaviy yondashuv: nazariya va amaliyot”. – 2025-yil 20-oktyabr. – 133–135 bet. – ISSN 3060-4648. – Guvohnoma №319860.